

XALQ OG'ZAKI IJODIDA BAXSHI TUSHUNCHASINING ETNOLOGIK TAHLILI

Abdullayeva Zaytuna Shamilevna

Termiz davlat universiteti "Musiqi ta'limi" kafedrasida o'qituvchisi,

"Jayhun" folklor-etnografik xalq ansambli badiiy rahbari

e-mail: abdullaevazaytuna@tersu.uz<https://orcid.org/0009-0002-8668-008X>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada baxshichilik va xalq dostonchiligi o'zbek xalqining qadimiy ma'naviy-madaniy merosida alohida o'rin tutadigan an'anaviy san'at turlaridan biridir. Mazkur ijodiy hodisa milliy qadriyatlarning dastlabki shakllanish bosqichlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, xalqning tarixiy xotirasi, estetik tafakkuri va og'zaki ijod an'alarini o'zida mujassam etadi. Baxshi atamasi tarixan terma, qo'shiq hamda epik dostonlarni yoddan ijro etuvchi, ularni avloddan-avlodga og'zaki tarzda yetkazib kelgan ijrochilarga nisbatan qo'llanilganligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: "ommaviy madaniyat", "Go'ro'g'li", "Turk tilining etimologik lug'ati", "to'y-tantanalarni boshqaruvchi kishi", "doston", "qissa", "hikoya", "tarix".

Аннотация: В данной статье описывается традиционное искусство бахши и народных эпосов, занимающих особое место в древнем духовном и культурном наследии узбекского народа. Это творческое явление тесно связано с начальными этапами формирования национальных ценностей и воплощает историческую память, эстетическое мышление и традиции устного творчества народа. Считается, что исторически термин «бахши» использовался для обозначения исполнителей, которые наизусть исполняли термы, песни и эпические эпосы, передавая их из поколения в поколение устно.

Ключевые слова: «народная культура», «Горугли», «Этимологический словарь тюркского языка», «тот, кто председательствует на свадьбах и торжествах», «эпос», «рассказ», «история».

Abstract: This article describes the traditional art of bakhshi and folk epics, which occupy a special place in the ancient spiritual

and cultural heritage of the Uzbek people. This creative phenomenon is closely related to the initial stages of the formation of national values, and embodies the historical memory, aesthetic thinking and traditions of oral creativity of the people. It is said that the term bakhshi was historically used to refer to performers who performed terms, songs and epic epics by heart, passing them down orally from generation to generation.

Keywords: "popular culture", "Gorughli", "Etymological dictionary of the Turkic language", "one who presides over weddings and celebrations", "epic", "story", "history".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mustaqillik yillarida O'zbekistonda baxshichilik san'atini asrab-avaylash va uni xalqaro miqyosda targ'ib etishga qaratilgan izchil davlat siyosati shakllandi. An'anaviy og'zaki epik merosni qo'llab-quvvatlash, baxshilar ijodini rag'batlantirish hamda mazkur san'at turining nufuzini oshirish borasida muhim tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, 2018-yil 1-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi qarorning qabul qilinishi mazkur yo'nalishdagi ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Ushbu hujjat baxshichilik san'atini tizimli ravishda rivojlantirish, uni jahon madaniy makoniga olib chiqish va milliy epik an'alarini keng targ'ib etishga xizmat qildi[1:54].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi hamda Surxondaryo viloyati hokimligi hamkorligida 2019-yil 5–10-

aprel kunlari Xalqaro baxshichilik san'ati festivali tashkil etildi. Mazkur xalqaro anjuman doirasida 200 nafardan ortiq baxshi, hakamlar hay'ati a'zolari va xorijiy hamda mahalliy mehmonlar ishtirok etdi. "Baxshi" atamasining kelib chiqishi haqida ilmiy adabiyotlarda turli etimologik talqinlar uchraydi. Ko'pchilik tadqiqotchilar ushbu so'zning mo'g'ulcha "baxshi" shakliga borib taqalishini, u "ustod", "ma'rifat tarqatuvchi" ma'nolarini anglatishini qayd etadilar. Mazkur ma'no baxshining faqat ijrochi emas, balki ma'naviy-ma'rifiy yo'l ko'rsatuvchi shaxs sifatidagi tarixiy mavqeini anglatadi. O'zbek etnomadaniy muhitida baxshilar turli nomlar bilan atalganligi ham e'tiborga loyiqdir. O'rta Osiyoning janubiy hududlarida ular "yuzboshi" yoki "sozanda" deb yuritilgan bo'lsa, Tojikiston hududidagi o'zbek-laqaylar orasida "soqi" atamasi qo'llanilgan. Farg'ona vodiysida esa "sanovchi" nomi bilan tanilgan. Shuningdek, "jirov", "jirchi", "oqin" kabi atamalar ham xalq og'zaki ijod ijrochilariga nisbatan ishlatilgan[2:96].

Bu holat epik an'ananing turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan umumiy madaniy hodisa ekanini ko'rsatadi. Masalan, qozoq an'anasida epik ijrochilar "oqin" va "jirov", qirg'izlarda "manaschi", mo'g'ullarda "to'lchi", o'g'uzlarda esa "uzan" nomlari bilan ma'lum. Tojik folklorshunosligida xalq eposi ijrochilari "go'yanda", "hofiz" yoki "shoir" deb ataladi. Xususan, "Go'ro'g'li" turkumiga mansub dostonlarni ijro etuvchilar ayrim hollarda dostoniga nisbat berib "go'ro'g'lisaro" tarzida ham nomlanadi. O'zbek an'anasida esa yirik baxshilar nomiga "shoir" qo'shimchasini qo'shib ishlatish keng tarqalgan bo'lib, bu ularning ijodiy salohiyati va badiiy tafakkur darajasini ifodalaydi. Baxshi atamasining tarixiy ildizlarini yanada chuqurroq anglash uchun qadimgi yozma manbalarga murojaat qilish muhimdir. Qadimgi uyg'ur yozuvli matnlarda yozuv-chizuv ishlari bilan shug'ullangan shaxslar "bahsi", "bitigchi", "katib" kabi nomlar bilan atalgan. Bu atamalar yozma madaniyat va ma'rifiy faoliyat bilan bog'liq kasbiy guruhlarini ifodalagan.

Uyg'ur yozuvida bitilgan manbalar bizgacha turli shakllarda — alohida varaqalar, o'rama

qog'ozlar, daftar va kitoblar, epigrafik bitiklar, shuningdek, yog'och taxta, sopol va metall buyumlardagi yozuvlar ko'rinishida yetib kelgan. Ayniqsa, turli tarixiy davrlarda yaratilgan kitoblar turkiy xalqlarning madaniy taraqqiyoti va ma'rifiy yuksalish jarayonini aks ettiruvchi muhim manba sifatida ajralib turadi. Bu jarayon kitobchilik an'analari shakllanishi va rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lib, turkiy xalqlarning ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan. Mazkur ma'lumotlar baxshi fenomenining faqat og'zaki ijod doirasida emas, balki kengroq ma'rifiy-madaniy muhitda shakllanganligini ko'rsatadi. Demak, baxshichilik an'anasi yozma va og'zaki madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ham o'zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida baholanishi mumkin.

Shuningdek, Turk tilining etimologik lug'atida "baxshi" so'ziga doir izohlar ham e'tiborga loyiqdir. Lug'atda qayd etilishicha, xitoycha "pak-si" (yoki "po-si") "ustoz", "yozuvchi", "kotib" ma'nolarini anglatgan bo'lib, keyinchalik "bahsi" yoki "baksi" shaklida turkiy muhitga singib ketgan. Mazkur manbada so'z, ayniqsa, shamanlik e'tiqodiga mansub turkiy jamoalarda "to'y-tantanalarni boshqaruvchi shaxs" ma'nosida qo'llanilgani ta'kidlanadi. Bu ma'lumotlar "baxshi" atamasining semantik taraqqiyoti murakkab va ko'p qatlamli jarayon ekanini ko'rsatadi. Dastlab yozma madaniyat va ma'rifat bilan bog'liq ma'noni anglatgan ushbu so'z keyinchalik marosim boshqaruvchisi, ruhiy yetakchi hamda og'zaki epik ijrochi ma'nolarini o'zida mujassam etgan. Natijada, baxshi obrazi turkiy xalqlar madaniyatida ma'naviy-ruhiy yetakchilik va ijodiy san'atkorlik xususiyatlarini birlashtirgan ko'p qirrali ijodkor sifatida shakllangan[3:164]. Umuman olganda, o'rta asrlar madaniy muhitida "baxshi" atamasi keng semantik doirada qo'llanilib, ilmiy va ma'rifatli kishilarga nisbatan ishlatilgan. Bu holat mazkur tushunchaning dastlab og'zaki epik ijrochilikdan ko'ra, yozma madaniyat va xattotlik faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. Tadqiqotchi Qosimjon Sodiqov o'z asarlarida ta'kidlaganidek, islomiy

davrda, xususan XIV–XV asrlarda Movarounnahr, Xuroson va Onado‘li hududlarida uyg‘ur yozuviga asoslangan kitobchilik an‘anasi yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan. Ayniqsa, Yazd, Hirot, Samarqand hamda Istanbul kabi yirik madaniyat markazlarida uyg‘ur yozuvida bituvchi baxshilar — ya‘ni xattotlar maktablari shakllangan. XIV–XV asr manbalarida uyg‘ur xatida qo‘lyozma ko‘chiruvchi kotiblarga nisbatan “bahsi” atamasining qo‘llanishi ham qayd etiladi. Bu esa baxshi so‘zining o‘sha davrda yozma ma‘rifiy faoliyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lganini tasdiqlaydi. Baxshichilik esa ko‘p asrlar davomida og‘zaki epik an‘ana sifatida avloddan-avlodga o‘tib kelgan betakror san‘at hodisasidir. Har bir baxshi o‘z xotirasida ajdodlardan meros qolgan epik syujetlar va poetik uslubni saqlagan holda, ijro jarayonida uni qayta talqin etgan va shu tariqa an‘anani boyitib borgan. Demak, baxshichilik doimiy ravishda yangilanib turuvchi tirik madaniy tizim sifatida namoyon bo‘ladi[4:59].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Tarixiy manbalarda baxshilar nomining tilga olinishi ularning ijtimoiy mavqeyidan dalolat beradi. Masalan, Sharofiddin Ali Yazdiy ma‘lumotiga ko‘ra, Amir Temur hukmronligi davrida Davlatshoh baxshi nomi qayd etiladi. Shuningdek, Akbarnoma asarida Mirbaxshi — ya‘ni bosh baxshi haqida ma‘lumot uchraydi. Yozma adabiy merosimizning nodir namunalari ham baxshilar faoliyati bilan bog‘liqdir. Jumladan, Qutadg‘u bilig, Hibat ul-haqoyiq hamda Merosnoma kabi asarlar “baxshi” deb atalgan kotiblar tomonidan ko‘chirilgan. Bu yerda “baxshi” atamasi uyg‘ur tilidagi “xattot”, “kotib”, “ma‘rifatchi” ma‘nolarini anglatgan bo‘lib, uning dastlabki mazmuni ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat bilan bog‘liqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shunday qilib, tarixiy manbalar tahlili “baxshi” tushunchasining o‘rta asrlarda keng ma‘rifiy mazmunga ega bo‘lganini, keyinchalik esa og‘zaki epik ijrochilik bilan uyg‘unlashib, murakkab ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Baxshi xalq dostonlarini yuqori, professional darajada, asosan, do‘mbira, shuningdek, qo‘biz jo‘rligida ijro etuvchi, ularni ajdoddan-avlodga

o‘tkazuvchi xalq san‘atkoridir. Biroq el orasida baxshi, deganda gohida kelajakni ko‘ruvchi folbin, duoxon, kinnachilar ham tushuniladi. Kinnachi-baxshilar sehrli, deb bilingan so‘zlari va g‘ayritabiiy tuyuladigan harakatlari bilan kasal kishini darddan xalos qilishga yoki kelajakdan darak berishga intilishadi. Bunday faoliyat usuli shomonlik ham deyiladi. Shuningdek, turkmanlar “baxshi” deganda xalq hofizini tushunsalar, qozoqlar kinnachi-shomonni “baqsu”, deb atashgan. Baxshichilik tarixi xalq og‘zaki ijodi orqali avloddan-avlodga o‘tib kelgan hamda zabardast xalq baxshilarining avlodlari shakllanib xalq ichida ulug‘landi va hurmat topadi[5:133]. Xorazm baxshichilik maktabi o‘zining ijro uslubi va musiqiy jo‘rnavorligi bilan boshqa hududiy an‘analardan ajralib turadi. Xorazm baxshilari dostonlarni, asosan, dutor jo‘rligida, ayrim hollarda esa tor cholg‘usi bilan ijro etadilar. Ularning chiqishlariga ko‘pincha g‘ijjak va bo‘lamon sozandalari hamroh bo‘ladi. Bu jihat mazkur hududda epik ijroning musiqiy-kompozitsion jihatdan boy va murakkab shakllanganini ko‘rsatadi. Tarixiy manbalar “baxshi” atamasining turli davrlarda keng ijtimoiy mazmunda qo‘llanilganini ko‘rsatadi. Mo‘g‘ullar istilosi davrida buddaviy qalandarlar, uyg‘ur yozuvi asosida hujjatlar tuzuvchi idora xodimlari, mo‘g‘ul jamiyatida ayrim tabib va jarrohlarni ham “baxshi” deb atalgan. Shuningdek, Chig‘atoy ulusi, Oltin O‘rda, Qozon va Qrim xonliklarida kotiblik faoliyatini olib borgan shaxslar, Boburiylar davlatida harbiy qismlarning moliyaviy hisob-kitob ishlarini yuritgan amaldorlar, Buxoro amirligida qurilish xarajatlarini nazorat qiluvchi mutasaddilar, turkman jamiyatida esa urug‘ oqsoqollari ham mazkur nom bilan yuritilgan. Bu holat “baxshi” tushunchasi ko‘p qirrali ijtimoiy vazifalarni o‘zida mujassam etganini va uning semantik doirasi tarixiy taraqqiyot jarayonida kengayib borganini anglatadi. Umuman olganda, xalq og‘zaki ijodining nodir namunalaridan biri — Alpomish dostoni ham o‘zbek xalqining yuksak badiiy tafakkuri, ijtimoiy ideallari va orzu-intilishlarining yorqin mahsulidir. Ushbu epik asar xalq ongida shakllangan qahramonlik, sadoqat va vatanparvarlik g‘oyalarini

mujassam etadi. Qadimiy davrlarda yozma savodxonlik keng tarqalmagan bir sharoitda ajdodlar o'z kechinmalari va ijtimoiy tajribasini musiqiy va poetik shaklda ifodalaganlar. Do'mbira jo'rligida kuylangan termalar va dostonlar ana shu jarayonning mahsuli sifatida shakllangan bo'lib, keyinchalik mustaqil folklor tizimining vujudga kelishiga asos yaratgan. Bu esa o'z navbatida turli hududlarda dostonchilik maktablarining shakllanishi va rivojlanishiga zamin bo'lgan. Shunday qilib, baxshichilik nafaqat og'zaki epik ijro an'anasi, balki turkiy xalqlarning ko'p asrlik ijtimoiy, ma'naviy va madaniy tajribasini mujassam etgan murakkab tarixiy fenomen sifatida namoyon bo'ladi[6:175].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Baxshilik san'ati markazi O'zbek folklorshunosligida Boysun, Bulung'ur, Nurota, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod va Chiroqchi kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari, Qamay, Piskent, Qulbuqon, o'zbek-laqay va boshqa shunday baxshichilik markazlari ham ma'lum. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi. Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo baxshilarining ko'pchiligi doston kuylayotganda odatdagi ovozini musiqa asbobi navosiga moslab o'zgartirishadi. Ovozni sozga jo'rflash baxshilar orasida "Tillo tarozi", deb

ataladi. Baxshilar orasida yana bir qancha turkum ijodkorlar bor. Ularning ayrimlari dostonlarni do'mbira chertib, biroq tovushini o'zgartirmasdan, odatiy bir tarzda aytalar, boshqa bir ijrochilar dostonlarni hech bir sozsiz, faqat og'zaki aytishgan. Baxshichilik san'atida o'zbek dostonchiligi mif, afsona, rivoyat, naql, ertak, doston bosqichlarida shakllanadi: "Doston" so'zi fors tilidan olingan bo'lib, "qissa", "hikoya", "tarix" ma'nolarini ifodalaydi. O'zbek badiiy adabiyotida dostonlar yaratilish usuliga ko'ra ikki xil bo'ladi. Birinchi turi yozma adabiyot vakillari tomonidan har bir bandi masnaviy-ikki misradan iborat, faqat she'riy shaklda yaratiladi. Ikkinchi tur dostonlar og'zaki ijod mahsuli sifatida folklor an'alariga bo'ysungan holda yaratiladi. Filologiya fanlari doktori, professor M.Saidov ta'rificha, og'zaki ijoddagi dostonlarda she'riy va nasriy parchalardan iborat badiiy manbatn bo'lishi kerak. Ikkinchidan, dostonning musiqasi bo'lishi lozim (Bu o'rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingan doston uchun alohida yirik musiqa asari bo'lishi shart emas). Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi tufayli kuylovchi do'mbira cherta bilishi yoki qo'biz chala bilishi zarur. To'rtinchidan, dostonni kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo'lishi va qo'shiq aytish mahoratini egallagan bo'lishi zarur.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Tursunov S.N. va boshqalar. Surxondaryo viloyati turizm salohiyati. "Tafakkur".2020. - B. 33.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi "O'zbekiston ovozi". 2019-yil 8-aprel.
3. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. I.17-fond, 1-ro'yxat, 52-ish, 69-varaq.
4. O'zbek folklorining epik janrlari. O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 7-kitob. — T.: Fan, 1981. —B. 12.
5. Sodiqov Q. Turkiy matnnavislik tarixidan Qadimgi yozma yodgorliklar. -Toshkent: Yozuvchi, 2000. - B. 125.
6. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. — Москва: Наука, 1962. — С. 34.